

TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Abdushukurova Nazokat Abdug'affor qizi

Toshkent KIMYO xalqaro universiteti II-bosqich magistranti.

asalaabdushukurova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14869248>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativlik sifatlarini oshirish, ijodkorlik mohiyati va uning nazariy metodologik asoslari, inson tafakkuri, undagi tanqidiy fikrlash shakllari yoritib berilgan. Ta'lismizda ijodkor o'quvchining shakillanishiga turtki bo'ladigan pedagogik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, pedagogik xususiyatlari, zamonaviy ta'lim, tanqidiy fikrlash, innovatsiya, tasavvur.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения творческих качеств учащихся, освещаются сущность творчества и его теоретико-методологические основы, мышление человека, формы критического мышления в нем. В системе образования выделяются педагогические особенности, способствующие формированию творческого ученика.

Ключевые слова: креативность, педагогические особенности, современное образование, критическое мышление, инновации, воображение.

THE NEED TO DEVELOP STUDENTS' CREATIVE QUALITIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article examines the issues of improving the creative qualities of students, highlights the essence of creativity and its theoretical and methodological foundations, human thinking, and forms of critical thinking in it. The educational system highlights pedagogical features that contribute to the formation of a creative student.

Keywords: creativity, pedagogical features, modern education, critical thinking, innovation, imagination.

Fan va texnalogiyalarning rivojlanishi hozirgi kun zamonaviy ta'lismida ham sezilarli darajada o'zgartirish, yangiliklar kiritish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli ta'limdagi islohotlar mohiyatini tushunish va anglab yetish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratish muammosi yuzaga keldi.

Boshlang'ich ta'lim — bu bolalarning bilim olish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirish yorqin kelajak uchun mustahkam asosdir. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to'liq moslashtirishga ko'maklashuvchi ta'lim tizimining asosiy vazifalari bu ta'lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan.

Ta'lim jarayonida kreativlik, ya'ni ijodkorlik sifatlar, bolalarning fikrlash jarayonlarini tizimli olib borishda yangi g'oyalarni ishlab chiqishida muhim omil hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning jamiyatga foydali, innovatsion fikrlovchi shaxs bo'lib ulg'ayishida asosiy dastak bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko'ra har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olib uni yanada rivojlantirish va olgan bilimlarini amaliy holda qo'llay olishi uchun zamin yaratish bir so'z bilan aytganda jamiyatning faol a'zosiga aylantirish hozirgi kun pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ma'lumki shaxs rivojlanishida o'ziga hoslik, biror bir muamoga noodatiy yondashish, har bir voqeа hodisaga o'zining mustaqil fikrini bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirgan inson ko'pgina natijalarga erisha olishi mumkin.

O'quvchilarning kreativ sifatlarini oshirishdan ko'zlangan maqsad, ularning ijodiy fikrlashlarini oshirish, muammolarni yangi o'ziga xos yo'nalishda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonidagi faolligini ko'paytirish, tassavurini boyitishdan iborat. Shu o'rinda ta'lim jarayonida ijodkor o'quvchini rivojlantirish masalasi yuzaga keladi. Hozirgi zamonaviylashgan dunyoda o'quvchilardan kreativ sifatlarga egalik ularni hayot faoliyatlarida qo'llab ko'rib to'g'ri xulosalar chiqarish malakalari talab qilinmoqda. Ta'lim faoliyatida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi bu o'quv jarayonini ular shaxsiga yo'naltirish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarni axloqiy hamda kasbiy yetuklik, mustaqillik, nazariy-tahliliy faoliyatga undash imkonini beradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

Buning natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, yaratuvchilik, faollik, hayotiy faoliyatga o'zini tayyorlash va moslashtirish kabi layoqatlarni tarkib toptiradi. Boshlang'ich sinf o'qiuvchilarida kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonining umumiyligi ahaliyatini anglash uchun dastlab "kreativlik", "keativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:²

Fikrni maqsadga
muvofiq yo'llay
olish

O'ziga xoslik
(originallik)

Qiziquvchanlik

Farazlar yaratish
qobiliyati

Xayol qila olish
(fantaziya)

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.³ Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innotvasion


² Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.

³ Ne'matov Bo'ritosh Saydullayevich BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI//Oriens 2021 901-902b

texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lism oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandard tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3.Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarни tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.⁴ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari bu ularda tarbiya orqali ta'limga shakllantirishning ustuvor vazifalarini belgilaydi va quyidagi xususiyatlarni shakllantiradi.⁵



Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o'qituvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina

⁴ Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик кобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.

⁵ Muhabbat URALOVA O'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda texnologiya fanining o'rni//Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415 358-b

to'g'ri yechimda to'xtaladi.⁶ Bugungi kunda kritik fikrlash har bir o'quvchi uchun zarur ko'nikmadir. Shu sababli o'quvchilarning fikrlash jarayonlarida ijobiy o'zgarish sodir qilish uchun ularga bir qancha savollar bilan murojat qilish zarur. Bu savollar orqali o'quvchilar fikrni rag'batlantirish mumkin. O'quvchilarga doimiy ravishda savollar berib, fikrlarini tahlil qila olishlariga ko'maklashish lozim. Misol uchun: "Nima uchun bunday qarorga keldingiz?", "Bu fikrni qanday dalil bilan qo'llab-quvvatlaysiz?", "Boshqa variantlaringiz bormi?" kabi savollar bilan tahlil jarayonini boyitish mumkin.

Bugungi zamonaviy pedagog o'quv jarayonlarini tashkil etishda birinchi bo'lib rejalashtirilgan bir turdag'i mashg'ulotlaridan voz kechib, o'quvchilarning mustaqil izlanishlariga zamin yaratishi, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ustida ish olib borishi, ularning ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lif olishga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, o'quv mashg'ulotlariga munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy vazifasi bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil – ijodkorlik hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning olgan bilimlarini faoliyatda ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni amaliy sinab ko'rishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
3. Ne'matov Bo'ritosh Saydullayevich BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI//Oriens 2021 901-902b
4. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик кобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.

⁶ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260

5. Muhabbat URALOVA O‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda texnologiya fanining o‘rnini//Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415 358-b
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260